

NOTARIAL MEDIATSIYADA RAQAMLASHTIRISH: HUQUQIY VA PSIXOLOGIK TAHLIL

Tursunova Adolat Abdug'affor qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullar yo'nalishi magistranti

tursunovaa73@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali notarial mediatsiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning huquqiy va psixologik chegaralari tahlil qilinadi. Mediatsiya jarayonini tashkil qilish va olib borishning onlayn formati samaradorligi ko'plab olimlar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsada, uning inson omili bilan bog'liq fundamental kamchiliklarini ya'ni shaxsning emotsional holatini to'liq qamrab olmasligi, iroda erkinligini ta'minlashdagi zaifligi va ko'z kontaktining yo'qolishini ilmiy asoslaydi. Notarial institutda ishlarni masofaviy tashkil qilish va olib borish samarali bolsa-da, notarial mediatsiyani onlayn olib borish kutilgan ijobiy natijani kafolatlay olmasligi mumkinligini, bundan tashqari, milliy mentalitet va qadryatlarda mulohazatning an'anaviy shakli ustunligi sohoni raqamlashtirishda chegaralarni vujudga keltirishi mumkinligi tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, notarial mediatsiya jarayoni oddiy texnik kelishuv emas, balki ontologik transformatsiyadir, ya'ni, masala faqat shakl o'zgarishi emas, balki mediatsiyaning mohiyati va tabiati o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

***Kalit so'zlar:** online mediatsiya, (ADR), E-notariat, milliy qadryatlar, psixologik to'siqlar, emotsional chegara, xavfsizlik muammolari, gibrid format.*

ABSTRACT

This article analyzes the legal and psychological limits of using digital technologies in the notarial mediation process. Although the effectiveness of the online format of organizing and conducting the mediation process has been recognized by many scholars, it scientifically substantiates its fundamental shortcomings related to the human factor, namely, the inability to fully cover the emotional state of the individual, the weakness in ensuring free will, and the loss of eye contact. Although the remote organization and conduct of work in the notarial institute is effective, it is analyzed that conducting notarial mediation online may not guarantee the expected positive result, and in addition, the dominance of the traditional form of communication in national mentality and values may create limits in the digitalization of the field. This study shows that the notarial mediation process is not a simple technical agreement, but an ontological transformation, that is, the

issue is not only a change in form, but also a change in the essence and nature of mediation.

Keywords: *online mediation, (ADR), E-notary, national values, psychological barriers, emotional boundaries, security issues, hybrid format.*

KIRISH

Bugungi kundagi shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamli yangilanish jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Jumladan, huquq sohasi ham raqamli dunyoning asosiy maydoniga aylandi. Raqamli texnologiyalar sud-huquq tizimini optimallashtirishda, elektron hujjatlar aylanishining joriy qilinishida, huquq tizimlarining elektron bazalarini shakllantirishda ayniqsa foydali bo'ldi. Shuningdek, notarial faoliyatda ham raqamli texnologiyalarning bugungi o'rnini shunchaki qulaylik yaratish emas, balki huquqiy xavfsizlikning fundamental kafolatiga aylandi deyishimiz mumkin. Ayniqsa, E-notarius tizimining joriy etilishi bu sohada qator yutuqlarni ta'minladi. Nizolarni muqobil hal etish (ADR) tizimi esa nizolarni onlayn hal qilish konsepsiyasini shakllantirdi. Bu nizolarni faqatgina texnologik vositalar yordamida emas, balki sun'iy intellekt va algoritmik tahlillar orqali hal qilish tizimini yaratdi. Biroq, nizolarni hal muqobil hal etish, xususan, mediatsiya jarayoni quruq huquqiy bitimlar yoki statistik ko'rsatkichlar doirasidan ancha kengroq tushuncha deb hisoblayman. U bevosita inson psixologiyasi va ruhiy kechinmalari bilan bog'liq bo'lib, mohiyatan insoniy iztiroblarni ijtimoiy-huquqiy yechimlar orqali ijobiy hal qilish deb baholash lozim. Biz sohada aynan notarial mediatsiyani rivojlantirishga urg'u berar ekanmiz, notarial institutning takomillashtirilishida o'rnini beqiyos bo'lgan raqamli texnologiyalarning notarial mediatsiyada kutilganidek samara bermasligini tan olishimiz lozim. Notarial mediatsiyani to'liq raqamlashtirish uning fundamental asosi bo'lgan shaxslararo ishonch va emotsional bog'lanishni yo'qqa chiqarish xavfi huquq sohasining ko'plab vakillarini tashvishga solayotgani hammamizga ma'lum. Fikrimcha, inson omili ustuvor bo'lgan jarayonlarni texnologiya yordamida to'liq amalga oshirib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamlashtirish jarayoni funksional samaradorlikni oshirishi mumkin, biroq u mediatsiyaning inson kechinmalariga va qadriyatlarga asoslangan tabiatini zaiflashtiradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy va nazariy tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Xorijiy olimlarning, xususan, E.Katsh, J.Rifkin, G.Rizzolatti, M.Legg, N.Ebner va J.Thompsonlarning ilmiy ishlari va nazariy qarashlari chuqur o'rganilgan. Notarial mediatsiya jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning huquqiy va

psixologik chegaralarini aniqlash maqsadida interdistsiplinar yondashuv, nazariy modellashtirish hamda milliy mentalitet kontekstida tahlil qilish usullari qoʻllanilgan.

NATIJALAR

Amaliyotlar shuni koʻrsatadiki, onlayn nizolarni hal etish (ODR) tizimining bir qancha ijobiy tomonlari mavjud. Jumladan, raqamli mediatsiya orqali tizimning samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Resurslarga kelsak, mediatsiya jarayonining ishtirokchilari bir-biridan uzoq masofalarda boʻlgan taqdirda ayniqsa foydalidir. Masofaviy tizim uchrashuv belgilangan joyga kelish bilan bogʻliq transport harajatlarini va vaqt muammosini sezilarli kamaytiradi. Amerikaning Massachusetts universiteti huquqshunos olimlari Nizolarni online hal qilish sohasining asoschilari boʻlgan E.Katsh va J.Rifkin texnologiyani jarayonning "to'rtinchi tomoni"¹ sifatida baholashadi.

Olimlarning fikricha, texnologiya shunchaki vosita emas, u jarayonning dinamikasini oʻzgartiradi, maʼlumotlarni tahlil qiladi va algoritmlar orqali yechim taklif qiladi. Albatta, hujjatlar bilan ishlashning qulay ekanligi, kelishuvlarni ayni vaqtda koʻrib chiqish, oʻzgartirish va elektron imzo orqali tasdiqlash imkoniyati yuqoridagi olimlarning fikrlarini aniq asoslab beradi. Bundan tashqari, ayrim nizolarda ekran oʻz vazifasidan ham koʻprogʻini bajarishi mumkin, yaʼni toʻgʻridan-toʻgʻri jismoniy qarama-qarshilikni oldini olishga yordam beradi. Elektron qurilmalar orqali muloqot qilish jarayonida emotsiyalarni yetarli darajada ochiqlanmasligi baʼzi hollarda foydali boʻlishi mumkin. Iqtisodiy va tijoriy nizolarni hal etishda raqamli mediatsiyadan foydalanish kutilgan natijani berishi ehtimoli yuqori, negaki bu turdagi nizolarda taraflarning ruhiy kechinmalari va emotsional holatining oʻzi asosiy jihat boʻlmasligi mumkin.

Yuqorida sanab oʻtilgan qulayliklarga qaramay, biz raqamli mediatsiyani toʻlaqonli yechim deya olmaymiz. Chunki, onlayn jarayonlar insoniy muloqotni oʻldiradi, hislar va ruhiy kechinmalarni hisobga olinmasligiga sabab boʻladi. Mediatorning asosiy quroli boʻlgan tomonlar oʻrtasidagi psixologik muhitni boshqarish qobiliyati bu yerda ishlamaydi. Italiyalik neyrobiolog olim G. Rizzolatti tomonidan ishlab chiqilgan koʻzgu neyronlari nazariyasiga koʻra, inson boshqa bir insonning haqiqiy niyatini va emotsiyasini bevosita muloqotda, mikromimika va tana tili orqali idrok etadi.² Ushbu nazariyaga koʻra turli texnologik vositalar orqali tashkil qilingan muzokara jarayonlari shaxslarning tabiiy emotsional harakatlarini yuzaga chiqarishida toʻsqinlik qiladi. Tana tili orqali amalga oshiriladigan muloqotni

¹Katsh, E., & Rifkin, J. (2001). *Online Dispute Resolution: Resolving Conflicts in Cyberspace*. San Francisco, CA: Jossey-Bass.

²Rizzolatti, G., & Sinigaglia, C. (2008). *Mirrors in the Brain: How Our Minds Share Actions and Emotions*. Oxford: Oxford University Press.

kamaytiradi. Bu sun'iy to'siqlar o'z navbatida mediator uchun jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin, sababi mediator jarayonni to'liq boshqara olmaydi taraflar bilan hissiy yaqinlik o'rnatish imkoniyati cheklanadi. Natijada visual cheklovlar mediator va taraflar o'rtasidagi psixologik ko'prik zaiflashtiradi. Yuqoridagilarga asoslanib, raqamli mediatsiya mediator uchun ham taraflar uchun ham kutilgan natijaga erisha olmaydi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Avstraliyalik huquqshunos olim M.Leggning fikriga ko'ra, raqamli jarayonlar muloqotda mavjudlik hissini pasaytiradi.³ Ekran orqali qilingan muloqotlarda shaxslar to'liq jarayon bilan qamrab olinmaydi, ba'zilar o'z ishlari va o'z hayollari bilan band bo'lishlari mumkin va jarayonni shunchaki ma'lumotlarga asoslangan jonli ko'rsatuv sifatida qabul qilishlari ham ehtimoldan holi emas. Bu esa jismoniy uchrashuvda vujudga keladigan mas'uliyat, ichki iroda kabi hislarni sezilarli darajada susaytirishi mumkin. Shaxs qarshisidagi insonga, uning ko'zlariga qarab muloqot qilgan vaqtda yuqori darajada ehtiyotkor bo'ladi va mas'uliyatni chuqurroq his qiladi. Bundan tashqari, raqamli uchrashuvlar istalgan vaqtda bittagina tugmani bosish orqali yakunlanishi bu paytda qulaylik emas, muammoni o'zaro hal qilishdan ko'ra bundan qochishga asos bo'lishi mumkin. Mediatsiyaga jarayoniga kirishish taraflarning to'liq ixtiyoriga asoslanishi nuqtai nazaridan muzokara jarayonida o'zini biroz noqulay his qilgan taraf mediatorning tushuntirishlari yoki nizoning biror muqobul yechimi taklif qilinishini kutmasdan ham shunchaki platformani tark etishi mumkin. Bu jarayonning protsessual muddatlariga va kelishuvga erishilmasligiga ham bevosita sabab bo'lishi mumkin.

Har qanday yangilikni xoh u texnologik fenomenon bo'ladimi, yoki yangi tizim bo'ladimi joriy etishdan avval millatning milliy qadryatlari va ruhini albatta o'rganib chiqish va u qanchalik samara beradi degan savolga javob bera olish lozim bo'ladi. O'z milliy qadryatlarimizdan kelib chiqadigan bo'lsak, yuzma-yuz o'tirib gaplashish muloqotning barcha tan oladigan, va shu vaqtgacha ijobiy natijalarga olib kelgan shakli ekanini ikkilanmay aytishimiz mumkin. Ayniqsa, oilaviy, meros yoki murakkab mulkiy nizolarda millatimizga xos bo'lgan andisha, yuzxotirchilik kabi hissiy sifatlar faqat jonli muloqotda ishlaydi. Yarashish, murosaga kelish, kechirim so'rash yoki kechirish kabi jarayonlar ko'proq jismoniy mavjudlikni talab qiladi. Texnologiya asrigacha bizning qarashlarimiz, ongimiz shu asosda shakllanib kelgan. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, erkan ortidan aytilgan uzr, yoki murosasozlik hech qanday ijtimoiy oqibat tug'dirmasligi kelishuv esa faqatgina yozma hujjatligicha

³ Legg, M. (2016). The Future of Dispute Resolution: Online ADR and Information Technology. *UNSW Law Research Paper*, No. 2016-62. University of New South Wales.

qolib ketishi mumkin. Ushbu sabablar ham mediatsiya jarayonini to'liq raqamlashtirishni samarali qilmasligi mumkin.

MUHOKAMA

Zamonaviy axborot texnologiyalarining sohadagi afzalliklarini to'laligicha rad etib bo'lmaydi albatta. Hujjatlar almashinuvida, o'zaro xabarnomalar yuborishda, muzokara vaqtlari va joyi haqidagi kelishuvlar kabi protsessual jihatlarida texnologiyaning yordami beqiyosdir. Shu sababdan, mediatsiya jarayonlarini olib borishda mutlaq raqamlashtirish yoki an'anaviy formatga yopishib olishdan voz kechib, "Gibrid mediatsiya modeli" joriy etish eng maqbul yechim sifatida tashkil qilishimiz mumkin. Aynan raqamli muloqot va onlayn nizolarni hal qilish sohasida dunyo olimlari xususan, N. Ebner va J. Thompsonlar⁴ juda ko'p izlanishlar va tadqiqotlar olib borishgan va bu modelni sohaga kiritishgan bo'lsada, mamlakatimizda gibrid mediatsiya modeli ilmiy nazariy jihatdan o'rganilmagan hisoblanadi. Shunga qaramay, hozirda respublikamizda ko'plab mediatorlar mediatsiya jarayonlarida bu modeldan mahorat bilan foydalanib kelayotganlarining guvohi bo'lyapmiz. Bu esa o'z navbatida nazariya va amaliyot o'rtasida bo'shliqni yuzaga keltiradi. chunki mediatorlarimiz tajribaviy yo'l bilan qo'llayotgan ushbu uslub metodologik jihatdan tizimlashtirilmagan. Vaholanki, aynan gibrid format ya'ni dastlabki bosqichda yuzma-yuz muloqot orqali ishonch muhitini yaratish, keyinchalik esa protsessual tejamkorlik uchun raqamli vositalarga o'tish bizning ijtimoiy-madaniy muhitimiz uchun eng samarali modeldir. Mazkur modelning ilmiy asoslanishi va qonunchilikda o'z aksini topishi nafaqat mediatorlar faoliyatini legallashtiradi, balki raqamli texnologiyalar davrida insoniy muloqotning qadrini va emotsional yaqinlikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

XULOSA

Notarial mediatsiyada inson omili tizimning asosi va yuragi hisoblanadi. Faqatgina onlayn formatdan foydalanib nizolarni hal qilish esa insoniy munosabatlardagi nozik jihatlarni qamrab ololmaydi. Shu tufayli raqamlashtirish chegarasi inson qalbi va emotsiyasi boshlangan joyda yakunlanishi kerak. Texnologiya yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin, biroq u mediatorning jarayonni boshqarishi, inson ko'zlaridagi samimiyat va yarashuv onidagi ichki yengillikni yetkazib berishga o'z hissasini qo'shmaydi. Shu sababli notarial mediatsiyani to'liq raqamlashtirish emas, balki nazorat ostidagi, qadriyatga asoslangan gibrid transformatsiya modeli istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etilishi lozim.

⁴ Ebner N., Thompson J. Face-to-Face or Screen-to-Screen? Aspects of Mediating via Video-mediated Communication // *Educating Negotiators for a Connected World*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Katsh, E., & Rifkin, J. (2001). *Online Dispute Resolution: Resolving Conflicts in Cyberspace*. San Francisco, CA: Jossey-Bass.
2. Rizzolatti, G., & Sinigaglia, C. (2008). *Mirrors in the Brain: How Our Minds Share Actions and Emotions*. Oxford: Oxford University Press.
3. Legg, M. (2016). The Future of Dispute Resolution: Online ADR and Information Technology. *UNSW Law Research Paper*, No. 2016-62. University of New South Wales.
4. Ebner, N., & Thompson, J. (2014). *Face-to-Face or Screen-to-Screen? Aspects of Mediating via Video-mediated Communication*. In C. Honeyman, J. Coben, & A. R. Wei-Min Lee (Eds.), *Educating Negotiators for a Connected World* (pp. 377–416). St. Paul, MN: DRI Press.